

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Kurbaniyazova</b>	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi .....	106
<b>Sh.D.Shodmonova</b>	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati .....	110
<b>A.I.Samijonov</b>	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi .....	114
<b>N.X.Djalalova</b>	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi .....	119
<b>I.Z.Nazarova</b>	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari .....	123

---

ТАРИХ

<b>A.B.Musayev</b>	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi .....	129
<b>Ф.А.Эгамбердиев</b>	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса .....	133
<b>M.M.Xolmatov</b>	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlarini.....	138
<b>N.R.Israilov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi .....	149

---

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili .....	156
<b>A.Badalova</b>	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace" .....	161
<b>S.F.Yuldosheva</b>	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi .....	166
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi .....	170
<b>S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova</b>	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
<b>M.R.Oxunova</b>	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri .....	178
<b>L.Hasanova</b>	
Aesthetics of the literary direction romanticism .....	182
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla sher sonetlari tahlili .....	186
<b>Z.F.Shukurova</b>	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini .....	192

---

TILSHUNOSLIK

<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida .....	198



UO‘K: 1/14+512.133-193

## YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY SAN‘AT TARAQQIYOTINING ISTIQBOLLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ИСКУССТВА В НОВОМ  
УЗБЕКИСТАНЕ

## PROSPECTS OF NATIONAL ART DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Nazarova Irodaxon Zayniddinovna 

Farg‘ona davlat universiteti pedagogika, psixologiya va san‘atshunoslik fakulteti musiqiy ta‘lim va madaniyat kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada Mustaqillik yillarida yangi marosimlar, an‘analar, milliy bayramlar paydo bo‘lganligi, ayrim unutilganlari qayta tiklanganligi, hozirgi kunda san‘atning boshqa turlari qatori raqs san‘atining tobora ommalashib, jamiyatda uning zamonaviy ahamiyati ortib borayotgani haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Аннотация**

В статье содержатся сведения о появлении новых обрядов, традиций, национальных праздников, возрождении некоторых забытых, возрастающей популярности танцевального искусства среди других видов искусства, его современном значении в обществе.

**Abstract**

The article contains information about the emergence of new ceremonies, traditions, national holidays, the revival of some forgotten ones, the increasing popularity of dance art, among other forms of art, and its modern importance in society.

**Kalit so‘zlar:** raqs, go‘zallik, an‘ana, sa‘nat, meros, estetika, jamiyat, shaxs, ma‘naviyat, madaniyat, tarbiya, qadriyat, estetika, dunyoqarash.

**Ключевые слова:** танец, красота, традиция, искусство, наследие, эстетика, общество, личность, духовность, культура, образование, ценность, эстетика, мировоззрение.

**Key words:** dance, beauty, tradition, art, heritage, aesthetics, society, personality, spirituality, culture, education, value, aesthetics, worldview

**KIRISH**

Yuksak madaniyat, ma‘naviy – ruhiy yetuklik, ma‘rifatparvarlik darajasini yuqoriga ko‘tarish, mamlakatimizdagi hozirgi kun ijtimoiy taraqqiyotning mohiyatini anglatuvchi tushunchalardir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishning asoslaridan biri – iqtisodiy va siyosiy soha bilan bir qatorda uning ma‘naviy taraqqiyotidir. Ma‘naviy taraqqiyotning muhim yo‘nalishi esa milliy san‘atning rivojlanishidir. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov mustaqil O‘zbekistonning ustuvor yo‘nalishi sifatida ma‘naviy taraqqiyotni e‘tirof etgan edi. Birinchi Prezident iqtisodiy va siyosiy sohaning muhimligini ta‘kidlagan holda, mustaqil O‘zbekistonning strategik taraqqiyotida ma‘naviy tiklanish va ma‘naviy yangilanishning ahamiyatini alohida aytib o‘tgan [1].

Barcha sohalardagi kabi san‘at sohasida ijod qilish va yangilik yaratish ijodkordan ulkan ilmiy, ma‘naviy va estetik salohiyatni talab etadi. San‘at asarini yaratish jarayoni – bu muntazam ijod qilish, ilmiy izlanish jarayoni.

Insonning mohiyati shundayki, u doim yangilikka, ijodga intiladi, ijodiy faoliyatiga yangiliklarni, innovatsiyalarni qo‘llaydi. “Inson bo‘lish qobiliyati uning faoliyatiga teng bo‘lmaslik qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, inson o‘zi yaratganlardan o‘tib ketadi. Salohiyat jihatdan insonning qobiliyatlari cheksiz” [2]. Bundan kelib chiqadiki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish uning yoshlaridan tinmay mehnat qilishni, ilm olishni talab etadi. Jamiyat taraqqiyotida subyektiv omilning salohiyati, ehtiyojlari, ideallari iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy- ma‘naviy va albatta, san‘at taraqqiyotini ta‘minlaydi.

Markaziy Osiyoda islom dinining tarqalishi va uning san‘atga ziddiyatli ta‘sir natijasida san‘at taraqqiyoti, jamiyat a‘zolarining estetik ongi, san‘atga munosabati ham o‘zgargan. Lekin jamiyat

taraqqiyotida amalga oshayotgan ijtimoiy hodisalar san'atga qanday ta'sir etmasin, milliy san'at yo'qolib ketmagan. San'atning yangi shakllari paydo bo'lgan. Bu fikrlar birdek san'atning raqs turiga ham tegishli. Chunki raqs san'ati yo'qolib ketmagan bo'lsada, islom dini ta'sirida transformatsiyaga uchradi, davrning estetik ideallari, estetik qadriyatlarini o'zgarib bordi.

Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy jarayonlar ta'sirida san'atning o'zgarib borishi, uning ijtimoiy xususiyatini ifoda etadi. Chunki jamiyatda amalga oshib borgan har qanday ijtimoiy va iqtisodiy hodisalar ma'naviyat, xususan san'atning taraqqiyoti yoki aksincha, turg'unlik davrlarini belgilab beradi.

Mustaqillik davrida yangi marosimlar, an'analar, milliy bayramlar paydo bo'ldi, ayrim unutilganlari qayta tiklandi. Milliy san'atning taraqqiyoti, xususiyatlari yangi davr mohiyatidan kelib chiqib o'zgardi. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida unga mos ravishda ma'naviyat va san'atning jamiyatda bajaradigan funktsiyalari ham o'zgardi. Mustaqillik davrida yangi marosimlar, an'analar, milliy bayramlar paydo bo'ldi, ayrim unutilganlari qayta tiklandi. Milliy san'atning taraqqiyoti, xususiyatlari yangi davr mohiyatidan kelib chiqib o'zgardi. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida unga mos ravishda ma'naviyat va san'atning jamiyatda bajaradigan funktsiyalari ham o'zgardi. Mustaqillik ruhiga mos ravishda 1990-yildan boshlab mamlakatda "Mustaqillik" bayrami, "Navro'z" bayramlari ommaviy nishonlana boshlandi.

Milliy raqslarda mustaqillik davriga xos bo'lgan va uning mohiyatini ifoda etuvchi qayta tiklangan dolzarb qadriyatlarini, milliy an'analari ifodalandi. Milliy ma'naviyat va qadriyatlarni kishilar ongiga singdirishda san'at muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Uning turlaridan biri – raqs ommaviylik va ta'sirchanlik xususiyatiga ko'ra bu borada muhim ahamiyatga ega. Raqs bilan xalq badiiy ijodiyotining ommaviy turi sifatida keng ommaviy sahnalarda, madaniyat uylari va san'at saroylarida ommaviy ravishda shug'ullana boshladi. Ko'plab havaskorlik raqs guruhlari tashkil topib, keng faoliyat ko'rsata boshladi. Raqs va musiqa boshqa san'at turlari kabi insonlarning o'zaro muloqotiga yordam beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa va raqsning mazmuni maxsus musiqiy obrazlarda haqiqiy borliqning aks ettirishini anglatadi [3].

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nafosat, uning ajralmas komponenti san'atning jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotidagi ahamiyati, insonlarning ma'naviy hayotiga aksiologik ta'siri muammolari qadimdan boshlab mumtoz faylasuflarning ilmiy-falsafiy asarlarida tahlil qilingan. Mazkur muammoning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga buyuk faylasuflar katta e'tibor qaratganlar. San'at, milliy san'atning turlari va shakllariga, xususan, raqs san'ati sharq va g'arb olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar hozirda ham davom etmoqda.

Qadimgi yunon falsafasida san'atni ijodiy-estetik hodisa, voqelikni emotsional o'zlashtirishning o'ziga xos shakli sifatida baholangan hamda ijodiy, barkamol shaxsni shakllantirish uchun har tomonlama ta'lim, jumladan, arifmetika va astronomiya, musiqa va raqsni o'rgatish, zarur deb hisoblanilgan" [4].

"Qadimgi Sharqda Misr, Hindiston, Xitoyda, keyinroq, Yunonistonda Sokrat, Platon, Aristotel, Qadimgi Rimda Lukretsiy Kar, Goratsiy falsafasida ularning estetik qarashlari aks etgan. Go'zallikni Pifagor sonlarda, Geraklit obyektiv olamning uyg'unligida, Platon g'oyalarda aks etadi, deb hisoblagan [5].

"Yunon mutafakkiri Aflotun butun madaniyatni ikki qismga ajratadi: tananing jismoniy madaniyatining butun sohasini o'z ichiga olgan gimnastika, musiqa va raqs, ma'naviy va intellektual sohasi. U raqs va gimnastikani har kimga, istisnosiz zarur, deb hisoblagan" [6].

O'zbekiston hududida qadimiy Xorazm yozuvlari, "Avesto"ning yaratilishi, qadimiy tangalar, skiflar tomonidan yasalgan oltin bezaklar mamlakatimizda qadimdan san'at taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Sharq Renessans davri estetik bilimlar, san'at taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi.

Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Bobur, Mashrab Sharq estetik falsafasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar. Qadimiy Sharq shaharlari Samarqand, Buxoro, Urganj, Marv san'at taraqqiyotining markazlariga aylandi.

Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" asarlarida estetik qarashlarini yoritgan. Uning fikricha, go'zallik tabiat va insonning mukammalligini va mutanosibligini ifoda etadi. Ibn Sino musiqa to'g'risida beshta asar yozgan. "Donishnoma", "Musiqiy bilim to'g'risida to'plam" nomli asarlarida insonning ruhiyatiga musiqaning ta'siri haqida tushuncha berilgan. Navoiyning

## FALSAFA

asarlari falsafa va san'atga bag'ishlangan, deb aytish mumkin. Navoiy 450 dan ziyod shoirlar, rassomlar, kompozitorlarning faoliyati va xalq qo'shiqlarini tasvirlab bergan.

O'zbek milliy falsafasining taniqli namoyondalari tomonidan san'at va uning turlariga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratilgan. O'zbek ma'rifatparvarlaridan biri Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida musiqa, raqs haqida quyidagilarni yozadi: "Men tanbur chertganimda va raqqosalar raqsga tushganda xalqimning ichki boy olamini, go'zal qalbini, hayoti nihoyatda qarama-qarshiliklar bilan to'lib ketganini his etaman. Raqs shunday san'atki, u xalqning, har bir millatning, ma'naviy hayotini ko'rsatib turadigan, Alloh taolo yaratgan bir mo'jiza" deb fikr bildirgan edi [7]. Darhaqiqat, raqs san'ati xalqning yillar davomida erishilgan yutuqlarini o'zida aks ettiradi.

Yevropada san'atning ulkan nazariyotchilari yashab, ijod etgan. Leonardo da Vinchi, Gelvetsiy, Volter, Yum, Leybnits, Kant, Gegel, Baumgarten go'zallik hamda san'at muammolariga bag'ishlab ko'plab asarlar yaratganlar.

"XX asrda shvetsariyalik bastakor va o'qituvchi Emil Jak Dalkroze musiqiy va ritmik ta'lim tizimini ishlab chiqdi, bu hali ham dunyodagi eng mashhur musiqa ta'lim usullaridan biri hisoblanadi. Dalkrozening fikricha, musiqa va raqs bilan muloqot qilish orqali inson bu dunyoda o'zini va tevarak-atrofdagi olamni bilishni o'rganadi, raqsga tushish esa nafaqat musiqiylikni rivojlantiradi, balki, iroda, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yordam beradi" [8]. Dalkrozening bu qarashlari hozirgi kunda ham o'z isbotini ko'rsatmoqda.

Estetika, san'at sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorij olimlaridan F.Levi, S.Tortora kabi tadqiqotchilar raqs san'atining bola shaxsining jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanishidagi imkoniyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Raqs sohasida yana bir mashhur pedagog Enriko Cheketti soha bo'yicha o'qitish usullarini ishlab chiqqan. U XIX asrning ikkinchi yarmida Milandagi "Laskala" teatri qoshida tashkil etilgan raqs maktabiga asos solgan [9]. Shuningdek, amerikalik dun'yoga mashhur olim Laurel Grey asos solgan "Silk Road Dance Company" raqs maktabini misol qilib keltirishimiz mumkin. Laurel Grey 1984-yil Amerikada O'zbekiston raqs va madaniyat jamiyatiga asos solgan bo'lib, u 1999-yil "Eng yaxshi etnik raqqosa", 2003-yil "Eng yaxshi xoreograf" xalqaro mukofotlari bilan taqdirlangan [10]. Bu amalga oshirilgan ishlar orqali O'zbekiston raqs san'atining jahonga tanilishida o'z hissasini qo'shgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida raqs san'ati sohasida yirik tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi vaqtda raqs mashg'ulotlari elementlari jumladan Rossiya davlatida jismoniy tarbiya fani dasturiga kiritilgan. Bunda raqsning bolani ma'naviy-axloqiy, jismoniy sifatlarini tarbiyalash, shaxsning umumiy ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga ta'sirga egaekanligi hisobga olingan [11]. I.N.Korneva, O.V.Oparinalar ta'limda raqs va sog'lomlashtirish faoliyatini integratsiya qilish imkoniyatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan bo'lsalar-da [12] Yu.Z.Bromley va Yu.V.Ilenkovalar raqs san'atining falsafiy-estetik xususiyatlarini o'rganish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar [13]. M.Petipa, I.Arbatov, P.Yorkin, A.Tomki, A.Gorskiy, V.Tixomirov, V.Gelser, F.Lopuxov, A.Vaganova M.Moiseevlar raqs san'atining balet janriga e'tibor qaratganlar [14]. Ularning olib borgan izlanishlari raqs san'atidagi o'zaro mushtaraklikni ta'minlashning axloqiy va estetik jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan estetika, san'at, raqs san'atiga bag'ishlab ko'plab fundamental ilmiy asarlar yaratilgan. Shuningdek, raqs san'ati sohasida faoliyat olib borgan bir qator san'atkorlar tomonidan ham bu sohaga bag'ishlab monografiyalar, kitoblar yozilgan.

"Raqs san'ati va badiiy gimnastikaning uyg'unligi asosida o'smir yoshlarning estetik tarbiyasi masalalari A.K.Eshtayev va A.K.Xaytmetovlar tomonidan qisman o'rganilgan [15], G'.Nadjimov xalq kuylari, raqslari, marosimlari va amaliy san'at kabi turlarida milliy an'analar aks etganligini asoslab bergan". Xususan shu kabi o'zbek musiqashunos olimlar singari yoshlarning ham jismoniy, ham aqliy, ham axloqiy estetik tarbiyasini oshirish maqsadida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirishmoqda.

"O'zbek milliy raqs san'atining xususiyatlari va mohiyat-mazmunini yoritishga intilgan va bu sohaning nazariyalarini yaratgan raqsshunoslar Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Lyubov Avdeyeva, Gavhar Matyoqubovalarning nomini qayd etish zarur" [16]. Ushbu raqsshunoslar o'zbek milliy raqs san'atiga katta hissa qo'shganlar va bugungi kunda ham ularning ijodi o'rganib kelinmoqda.

“O‘zbekistonda o‘zbek milliy raqs san‘atining asoslarini yaratishda Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarama Turg‘unboyevalarning alohida o‘rni bor. Karim Rahimov, Qodir Mo‘minov, Ma‘mura Ergasheva, Yulduz Ismatova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana Sultonova, Dilafuz Jabborova, Qizlarxon Do‘stmuhammedova, Malika Ahmedovalar o‘zbek milliy raqs san‘atining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan san‘atkorlar hisoblanadi. Ularning xizmatlari raqs san‘atining nazariyotchilari tomonidan e‘tirof etilgan” [17].

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustaqillik – ijtimoiy - milliy voqelik, xalqimizning tarixiy hayotida ulkan burilish sifatida namoyon bo‘ldi. Jamiyatda ma‘naviy tiklanish, keyinroq ma‘naviy yangilanish jarayonlari amalga osha boshladi. Bu obyektiv jarayon bilan yonma-yon ma‘naviy yangilanish amalga osha boshladi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatning ma‘naviy taraqqiyotiga katta e‘tibor qaratmoqda. Yaqin o‘tgan yillarda Prezident tomomnidan ma‘naviyat, san‘at taraqqiyotiga aloqador muhim Farmonlar va Qarorlar qabul qilindi. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da mamlakatimizda san‘at taraqqiyotiga alohida e‘tibor qaratilgan [18].

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda tarixiy-milliy estetik qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga ularni ilg‘or, milliylik tamoyillarini buzmaydigan estetik qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvini ta‘minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Albatta, bu jarayonda milliy raqs san‘atiga ham boshqa millatlar raqs san‘atining elementlarini kirib kelishi tabiiy holdir. Muammo – milliy raqsning o‘ziga xos xususiyatini saqlab qolishda. Buning uchun quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratish zarur:

Milliy raqs san‘atining e‘tibor qaratish zarur bo‘lgan jihatlar	Amalga oshirish tartibi
Milliy raqsning o‘ziga xos xususiyatini saqlab qolish.	Milliy raqs san‘atining mohiyatini hamda milliy xususiyatlarini himoya qilish, ularni avaylab, saqlab kelajak avlodlarga yetkazib berishni taqozo etadi. Buning uchun san‘atning milliy merosiy salohiyatini saqlab qolish bilan birga umuminsoniy estetik qadriyatlar, o‘zga millatlar san‘atining ilg‘or elementlari bilan uyg‘unlashuvini ta‘minlash lozim. Bu borada yoshlar milliy ijtimoiy ongini milliy manfaatlar asosida rivojlantirish, uni milliy qadriyatlarni asrash va yo‘naltirish orqali milliy san‘atni himoya qilish mumkin.
Milliy raqs milliy meroslik xususiyatini saqlab qolishi.	Raqs san‘atining mohiyatini hamda milliy xususiyatlarini himoya qilish, ularni avaylab, saqlab kelajak avlodlarga yetkazib berishni taqozo etadi. Buning uchun yoshlarni milliy san‘at ruhida tarbiyalash, estetik immunitetini oshirish va ularning ongiga milliy san‘atga muhabbat va ideallarni singdirish kabi ommaviy madaniyatga qarshi kurashning omillarini singdirish zarur.
Milliy raqs san‘atining milliy mentalitet xarakterini ifoda etishi hamda milliy raqs san‘atining milliy-tarbiyaviy ahamiyatining saqlanib qolishi;	O‘zbek milliy-madaniy mentalitetini o‘zida yaqqol namoyon etadigan millat ziynati deb hisoblanuvchi raqs o‘zining betakror xususiyatlari, estetik zavq bag‘ishlovchi jozibasi bilan ajralib, jamiyatimiz yoshlarining o‘zbek milliy raqs san‘atiga ijodiy munosabatini rivojlantirish hamda ularning ongiga milliy san‘atimizning mohiyatini tushuntirish va targ‘ib qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
Milliy raqsning ma‘naviy-estetik ehtiyojlarni qondira olishi;	Ma‘naviy-estetik tarbiya tizimida raqs muhim rol o‘ynaydi, chunki raqs bilan shug‘ullanadigan inson uni o‘rab turgan borliqni, o‘zi yashab turgan olamning go‘zalligini his etish, uni asrab avaylash va e‘zozlashni o‘rganadi. Raqs san‘ati go‘zallikka intilgan insonning, ayniqsa yoshlarning go‘zallikni anglashgina emas, balki go‘zallikni yaratishga, unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, asrab-avaylashga yo‘naltiradi. Buning asosida insonning tasavvuri,

## FALSAFA

	tafakkuri taraqqiy etadi.
Milliy raqsning aksiologik xususiyatining saqlanib qolishi	Milliy san'atning aksiologik xususiyatiga mos tushmaydigan jihatlariga qarshi kurashida jamiyat va uning a'zolarining madaniy-estetik ongi, estetik didi, milliy va zamonaviy san'atga munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekistonni yaratishda ma'naviy qadriyatlarni xususan milliy san'at va uning merosini asrab-avaylash, uni yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy raqs san'atini ommaviy madaniyat, globallashuvning salbiy ta'siridan himoya qilish va uni kelajak insonlariga ma'naviy qadriyat sifatida meros qilib yetkazish uchun san'atning bu turini asrab – avaylash, uni muntazam targ'ib qilish, ta'lim tizimida estetika darslarida milliy san'at, xususan milliy raqs san'atining ahamiyatini yoshlarga tushuntirib borish muhim ahamiyatga ega.

**Buning uchun milliy raqslarni :**

- ❖ ommaviy axborot vositalarida yoritib borish;
  - ❖ televideniya ularni muntazam ko'rsatib borish;
  - ❖ raqs ijrochilarining ijodiy faoliyatini o'rnatib bo'ladigan jihatlarini yoritib borish;
  - ❖ keng tarqalgan milliy raqs san'ati durdonalarining tarixi bilan maxsus shug'ullanish hamda ko'rsatuvlar tayyorlash;
  - ❖ asrlar davomida shakllangan mumtoz raqslarni yo'qolib ketishini oldini olish;
  - ❖ milliy raqslarni xalq bayramlari hamda milliy ommaviy bayramlarda ijro etilishi;
  - ❖ raqs ijrochilari haqida ko'rsatuvlar tayyorlash;
- bularning barchasi milliy raqs san'atning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O'zbek madaniyati va san'ati, xususan, musiqa, qo'shiq, raqs kabi yondosh sohalar va san'atshunoslikka oid muammolarni tadqiq qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy faoliyatni, pedagoglar sa'y-harakatini qo'llab-quvvatlash estetik ta'lim tizimini takomillashtirishga, ilmiy salohiyati yuqori, chuqur bilim va tajribaga ega yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash, yosh san'at iste'dodlarni yanada kamol toptirish va yuksaltirishga zamin yaratadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyotida yangi zamonga mos ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish, san'at sohasida milliy va zamonaviy o'zgarishlarni aks ettiruvchi estetik ehtiyojlar, estetik ijodning taraqqiyoti uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish zarur. Yangi estetik ehtiyojlarning yuzaga kelishi boshqa ma'naviy ehtiyojlar qatori ijtimoiy taraqqiyotning yo'nalishlari, ijobiy ma'naviy o'zgarishlarni ta'minlaydi. Estetik ehtiyojlarning qondirilishi, ma'naviyat taraqqiyoti, jamiyat ma'naviy ongigagina emas, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Chunki inson ongi va salohiyatining o'sib borishi, ma'naviy yuksalishi insonni yanada ko'proq ijod qilishga, yangilik yaratishga da'vat etadi. Madaniyat va san'at sohasida badiiy ijodning rivojiga ham ijobiy ta'sir etuvchi turtki bo'ladi.

**XULOSA**

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

Yangi O'zbekistonni barpo etishda buyuk tarix, madaniyat va ma'naviyat egasi bo'lgan xalqimiz demokratik tamoyillarga asoslangan yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini qurayotgan va ayni paytda takomillashtirayotgan hozirgi murakkab va shiddatli davrda, chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadri milliy o'zligini anglashi milliy qadriyatlari tarkibida o'zbek milliy raqs san'ati ayniqsa, raqsning insoniyatga estetik zavq, xushkayfiyat bahsh etish, mamlakatimizning go'zal madaniyatini jahonga yoyish, xalq diplomatiyasini rivojlantirish hamda ma'naviy-madaniy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va mas'uliyatli yondashuv ekanligi aniqlandi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli (70-modda) "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. URL :<https://lex.uz/docs/3107036>
2. Миньюшев Ф.И. Социальная антропология. –Москва: Международный Университет Бизнеса и управления. Братья Карич, 1999.-С.172.
3. Вахромеева Т.А.Справочник по музыкальной грамоте.-М., 2004 г.
4. Каранг. Истории памятники мировой эстетической мысли В.6 т-х. -Москва. Искусство.1988.Т.-1.178с.

5. <https://uz.eferrit.com/platon-eng-muhim-faylasuflardan-biri/>
6. Аристотель, Сочинения. 4 т.Т.-1. Москва. "Мысль" 1981г. 37с.
7. Rahimov A. Sahna sirlari munaqqid nigohida. Toshkent.: Turon zamin ziyo. 2016 y. B-200.
8. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Jan-Dalkroz\\_Emil](https://ru.wikipedia.org/wiki/Jan-Dalkroz_Emil)
9. <https://ru.wikipedia.org/w/index.php?search=&title=%D0%A>
10. Yuz.uz./uz/neys/raqshda-ozbek-raqs-san'atini-organish-boyicha-ikki-haftalik-dastur---silk-road-dance-camp-2020. "Central Asian Dance Camp 2020".
11. <https://t.me/ares>. Volume 3 | Issue 8 | 2022. ISSN: 2181-1385.Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1
12. Выготский, Л. С. Психология искусства. – Ростов на/Дону издательство «Феникс»: 1998. 480 с.
13. Луговая ЕК.Философия танца.–СПб.:СПбГУ, 2008г.-131с.
14. Авдеева Л."Ўзбек миллий рақс тарихидан. – Т.: Мукаррама Тургунбоева номидаги "Ўзбек рақс" миллий рақс бирлашмаси, 2001г. – В. 204.
15. Наджимов. Т. Н. Культура и народная традиция. –Т.; Фан.1992г .
17. Sayfullaeva D., Kazakbaeva Z. O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs saxnalashtirish sirlari. – Toshkent.: "Voriz – Nashriyoti" MCHJ. 2006 y. – В. 87.
18. Karimova R, Sayfullayeva D. O'zbek ayollar yakka raqsi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi.2010 y. B-503.